

MALLA SAVDOGAR DOSTONIDA QIRQ CHILTON TIMSOLI. QIRQ RAQAMI BILAN BOG‘LIQ QARASHLAR

Achilova Zuxra Qurbanovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalish magistrant

ANNOTATSIYA

Maqolada Malla savdogar dostonida Avazxon va Qirq chilton timsoli bilan qanday rishta mavjudligi, shuningdek, turkiy xalqlarning qirq soni bilan bog ‘liq turli qarashlari, toponomik joylar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: baxshi, Qirq chilton, qirq raqamining ishoraviy belgilari, chilliyosin, qirq qiz, qirq qal’a, qirq urug’.

Turkiy elatlarning xalq og ‘zaki ijodi janrlarida qirraqami bilna bog ‘liq turlich qarashlar va tasavvurlar mavjud. Jumladan, Go‘ro‘g‘li dostoni turkumidagi Malla savdogar dostoni variantlarida Qirq chilton, qirrq raqamining xosiyatlari farqli ravishda ifodalanga.

Jumladan, baxshi Jo‘ra Eshmirza o‘g‘li tomonidan aytilgan variantda Go‘ro‘g‘li turkumidagi “Malla savdogar” dostoni Chambil yurtining madhi, shuningdek Go‘ro‘g‘li Avazxonni olti yoshida Xunxor mamalakatidan farzandlikka olib kelgani bilan voqelar debochasi boshlanadi. Dostonda Avazxon “...sakkiz yoshida maktabga olib borib qo‘yan, to ‘qqizida dovotning qalamini to ‘g ‘irlab kalimai sharifni ko ‘ngliga bitib olgan, o ‘n yoshida ot minmoqni talab qilgan, o ‘n birida Go‘ro‘g‘li Sulduz tog ‘iga birga olib chiqqan. Sulduz tog ‘ining ustida yakka archa bor ekan, shu archaning tagiga makon qildi qirq chiltanlar, Hizr bobo ham keldi. Bu kecha shular bilan suhbatda bo ‘ldi. Ertasi tong otdi, so‘fi azon aytdi, darveshlar namozdan qaytdi, qo‘shqo‘llab fotihani betga tortdi. Kun ham chiqib choshkaga yetdi. Go‘ro‘g‘li qirq chiltandan duo tiladi. Qirq chiltan qo‘lini duoga ochib, Avazning haqiga miltiq o ‘qi tegsa kor qilmaydigan duoni tiladilar. Hizir bobo marhamat qilib, joylaridan turib, Avazning kamarini beliga bug‘dilar.” [1.296-b.]

Turkiy xalqla islom diniga e’tiqod qilsh natijasida qirq Chilton va Hizr haqidagi tasavvurlari yuzaga kelgandek taassurot uyg ‘otadi.

Qirq Chilton va Hizr timsollari manbalarda turlicha talqin etilgan. Jumladan qirq chilton mazmuni quyidagicha izohlanadi.

Chilton, chiltan (f.-qirq kishi, qirqa ruh) — diniy tasavvurlarga ko‘ra, g‘ayritabiyy kuchga ega bo‘lgan afsonaviy 40 ta ruh. Rivoyatlarda Chiltonlar odamlar

ko‘ziga ko‘rinmaydi, ba’zan ular orasida odam qiyofasida yashaydi deb talqin etiladi. Ular, odatda, mozor va shahrik. odamlar bo‘lmaydigan joylarda uchraydi deb tasavvur qilinadi. Turli ofatlardan saqlanish, kasaldan qutulish maqsadida Chiltonlarga atab pilikdan yasalgan 40 chiroq yoqish, ularga bag‘ishlab turli taomlar pishirish odati bo‘lgan. Taomlar Chilton oshi deb atalgan va ular shu marosim munosabati bilan to‘plangan xotin-qizlarga tarqatilgan. Hozirgi vaqtda Chiltonlar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odatlar deyarli yo‘qolib ketgan.

Rivoyatlarda chiltonlar odamlar ko‘ziga ko‘rinmaydi, ba’zan ular orasida odam qiyofasida yashaydi deb talqin etiladi. Ular, odatda, mozor va shu kabi odamlar bo‘lmaydigan joylarda uchraydi, deb tasavvur qilinadi. Turli ofatlardan saqlanish, kasaldan qutulish maqsadida chiltonlarga atab pilikdan yasalgan 40 chiroq yoqish, ularga bag‘ishlab turli taomlar pishirish odati bo‘lgan. Taomlar chilton oshi deb atalgan va ular shu marosim munosabati bilan to‘plangan xotin-qizlarga tarqatilgan. Hozirgi vaqtda Chiltonlar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odatlar deyarli yo‘qolib ketgan.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida Ch.lar qirq tan, ya’ni qirq odam. Bu qirq kishi avliyolik quvvatiga ega bo‘lib, dunyo masalalarini hal qilishda Xudoning amri bilan ish ko‘radilar. O‘lganlar o‘rni tirik odamlar bilan to‘ldirib turiladi.^[1] [1. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T.: «G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi», 1992. B. 203.]

Komil pirlar bo ‘lsin sizga madadkor,

Qirq chiltanlar bo ‘lsin sizga jilovdor. “Malikai ayyor”.

Chiltanlar nazar qildi shekilli, xonadonim qayta boshdan obod bo ‘ldi. [Mirkarim Osim, Karvon yo ‘llarida. 485-bet.]

Ayrim manbalrda chilton tushunchasiga diniy-xurofiy tasavvur deb qaraladi.

(Xolljon xola) har ikki haftada bibi Seshanba onaning dasturxonini yozib, “mushkulkushod”, chiltanlarga atab shovla qiladi. G‘ayratiy, Dovdirash **[6. internet manba]**

O‘tmishda xalq orasida “qirq bir chilton” tarzida ham chiltonlar haqida tushunchalar mavjud bo‘lgan.

Asrimizning turkiy dunyo adabiyotining ulug‘laridan qirg‘iz eli adibi Chingiz Aytmatovning “Asrni qaritgan kun” (“Asrga tatigulik kun”) asarida Edigey Bo‘ronni shunday tasviri keltiriladi; “Edigey Bo‘ron hikoyalari tugagach, toshchalar bilan fol ochishga o ‘rinadi. Endi u doimo cho ‘ntagida har biri no‘xatdday keladigan qirq bitta toshcha olib yurardi.Folbinlik – bu qadimgi usulning o ‘ziga xos murakkab so ‘z, atamalari bor. [2. 286-b.]

Bundan anglash mumkinki, qirq yoki qirq bir sonlari turkiy xalq orasida ramziy “madad”, “ezgulik”, “yordamchi” ma’nosida kelgan.

Yoki qirq nomi bilan bog ‘liq inson xastaligi bilan yoki tabiat hodisalari bilan ham bog ‘liq jihatlarni eslab o ‘tish mumkin.

Masalan, Chilliyyosin (f. chihl yosin-qirq yosin)- Qur’onning yosin surasini o‘qish bilan bog‘liq bo ‘lgan diniy odat, og‘ir kasalikni tuzatish yoki yengillashtirish maqsadida o ‘qib dam solish, chiliyyosin o‘qtirish.

Chilton so ‘zining chil o‘zagi o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ma’lumot berilgan:

Chilla (f.- chilla, chihl ro ‘zi chihola) –qirq kun

1.Yilning eng issiq yoki sovuq kuni. Chilla kirdi, chilla chiqdi.

Yoz chillasi yoki yozgi chilla 25- iyuldan 5 -avgustgacha bo ‘lgan eng issiq qirq kun.

Qish chillasi yoki qishki chilla 25- dekabrdan 5-fevralgacha eng sovuq qirq kun.

2.etn. Bola tuqqan yoki tug ‘ilganidan, qiz turmushga chiqqanidan, yigit uylanganida, marhum ko ‘milgan kundan keying qirq kunlik davr, turmushdagi ba’zi hodisa –holatlarning eng og ‘ir yoki ma’suliyatlidavri

Chilla yara. Bolaga chilla davrida chiqadigan yara, toshma

Chillasi chiqmagan 1)chilla davri tamom bo ‘Imagan

3.din. sufiy yoki muridning yakka o ‘zi xona (hujra)da, odamlardan yashirinib; qirq kun davomida uydan chiqmasdan yolg ‘izlikda toat-ibodat qilmoq va hokozolar.

[4. 483-b.]

O‘zbek tilining izohli lug ‘atida qirq raqami bilan bog ‘liq ma’lumotlar bor, masalan, qirq kokil. Mayda o ‘rilgan soch nazarda tutilgan.

Shuningdek, Etnik jihatdan lug ‘atda keltirilishicha kishi vafotidan so ‘ng o ‘ttiz yettinchi yoki o ‘ttiz to ‘qqizinchikuni o ‘tkaziladi. [4.302-b.]

Qirq raqami bilan bog ‘liq o ‘zbek xalq tarkibiga kiruvchi yirik qabilalardan biri. [4.302-b.]

Ilk yakka xudolik tafakkurini shakllanish davrida yuzaga kelgan zardushtiylikni “Avesto” manbasida ham ya’niki Axuramazda o ‘zining butun borliqni yaratgan xudo ekanligini bildirish uchun odamlar orasida zardushtni tanlaganligi haqida xabarlar bor.

Ushanda Zardusht 40 yoshda bo‘lib, u avvalgi ko‘pxudochilik diniy tasavvurlariga hamda tabiat hodisalariga qarshi chiqib, yakkaxudochilkka asoslangan kitobiy din – Zardushtiylik dinini yaratgan. [7..Intennet manba]

40 yosh insonni yetuklik davri deb ham qaraladi.

Solih alayhissalom qissasida Kosur ibn Ubaydni butga ximatkor qilib qo‘yilishi, u 40 yil butga xodim bo‘lishi, bir kuni shayton farishtalardan “Kosurdan bir o‘g‘il paydo bo‘lib, podshohni o‘ldirur” degan bashoratini eshitib qolishi, keyin shayton but

ichiga kirib, “Kosirni zindonga solinglar, u menga yaxshi xizmat qilmayotit” deb aytishi, so ‘ngra Kosur zindonda 40 yil saqlanishi bayon qilingan.

[3. 44-bet.]

Bu qissadagi hodisa Kosur umrining qirq yillik sinovi edi.

Qirq soni bilan bog ‘liq ochiq osmon ostidagi tarixiy obidalar ham bor. Masalan:

Qirqqiz qal’asi — Surxondaryo viloyatidagi me’moriy yodgorlik (9—10-asrlar); Termiz tumanida (vayrona holida saqlangan). Nima maqsadda qurilganligi (qal’a, saroy, xonaqoh, karvonsaroy) haqida ma’lumot yo‘q. O‘rta asrlarda Termiz shahrining tashqarisida joylashganligi qal’a shahar tashqarisidagi qo‘rg‘on vazifasini o‘taganligini ko‘rsatadi.

Og‘zaki ma’lumotlarga ko‘ra, xalq dostonlarida zikr etilgan dushmanlar hujumini qaytara olgan qahramon qiz Guloyim va uning 40 dugonasi aynan shu yerda yashagan. Shuningdek, 20-asrgacha xalq tomonidan Qirqqiz qal’asi manzili „Shahri Somon“ deb ham atalgan.**[8. internet manba]**

“Qirq qiz”— qoraqalpoq xalq qahramonlik eposi.

Qoraqalpoq xalqining madaniy yodgorligi. Qurbonboy baxshi Tojiboy o‘g‘lidan yozib olingan (1939—40). Asarda tasvirlanishicha, Olloyor boyning yagona qizi Guloyim qirq dugonasi va o‘z oshig‘i Arslon bilan Eron shohi Nodirshoh va qalmoq xoni Surtaysha hujumidan yurtini himoya qilishga otlanadi. Asar erksevarlik, vatanparvarlik va gumanizm g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Undagi Guloyim, Ol-tinoy, O‘tbosgan, Arslon, Sarvinoz kabi obrazlarda jasurlik, vatanga sadoqat, insoniylik, dushmanga shafqatsizlik g‘oyalari mujassamlashgan. Asarning syujet chizig‘i To‘maris, saklar malikasi Zarina haqidagi rivoyatlarga o‘xshab ketadi.**[internet manba]**

Xullas, qirq soni bilan bog‘liq turlichay munozara va sabablar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Malla savdogar dostoni . Jo ‘ra Esmirza kuylagan variant. 296-b. Ziyo.uz. kutubxonasi.
2. Chingiz Aytmatov, Asrga tatigulik kun, 286-b. T. “Yangi asr avlodi” n. 2018-yil.
3. Nosiruddin Burhonuddin Rabg ‘uziy “Qissasi Rabg ‘uziy” asari, 44-bet. T. “Yoshlar nashriyoti uyi”, 2018-yil.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jildi, 483-b. T. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyas” Davlat ilmiy nashriyoti.2008-yil.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jildi, 302-b. T. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyas” Davlat ilmiy nashriyoti.2008-yil.
6. Chilton. .Internet manba.
7. Zardushtiylik dinining paydo bo ‘lishi maqolasi. Intennet manba.
8. Qirqqiz qal’asi Qirq qa’la. Internet manba.